«TASDIQLAYMAN»
Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori, professor

_______________A.K. Shadmanov
«22» fevral 2023-yil

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig'ilishining**
**8-sonli BAYONI**

Toshkent shahar «22» fevral 2023 yil

**Raislik qiluvchi: A.K.Shadmanov** Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori, professor

**Qatnashdilar:** Toshkent tibbiyot akademiyasining Ilmiy kengashi a`zolari (ro`yxat bo`yicha)

**K U N T A R T I B I**

1. Akademiyada ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik instituti faoliyati tahlili.

**Ma'ruzachi** – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo`yicha prorektor Feruza Lutpillaevna Azizova.

2. Xalqaro hamkorlik doirasida bajarilayotgan ishlar, xalqaro aloqalar bo`limi faoliyati tahlili.

**Ma'ruzachi** – Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor Jahongir Djamshidovich Israilov.

3. Professor-o`qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

**Ma'ruzachi** – Tanlov komissiyasi raisi.

4. Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

**Ma'ruzachi** – O`quv-uslubiy boshqarma boshlig`i Azizova Feruza Xusanovna, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo`limi boshlig`i Muminova Ziyoda Abrarovna.

5. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

| | |
|---|---|
| **O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor** | **Sh.A.Boymuradov** |
| **Yoshlar masalalari va ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor** | **T.A. Bobomuratov** |
| **Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor** | **F.L. Azizova** |
| **Davolash ishlari bo‘yicha prorektor** | **M.Sh. Karimov** |
| **Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori** | **S.I.Dustmurodov** |
| **O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i** | **F.X. Azizova** |
| **Bosh hisobchi** | **B.I. Alijonova** |
| **Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i** | **O.U. G‘oipov** |
| **Yuriskonsult** | **S.M. Yusupova** |

## QAROR QILADI:

1. Kun tartibining birinchi masalasi bo'yicha "Akademiyada ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik instituti faoliyati tahlili" mavzusi bo'yicha Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Feruza Lutpillayevna Azizovaning ma'lumoti qoniqarli deb hisoblansin hamda axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

1.1. Akademiyada munosib ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash va sifatini oshirish maqsadida barcha fakultet kafedralarining bakalavriatura va magistratura yo'nalishlaridagi ta'lim olayotgan iqtidorli talabalar orasida diplomdan keyingi ta'lim (magistratura va doktorantura) bosqichi uchun selektsiya ishlari olib borilishi hamda doktorantura va magistraturaga uchun bo'lajak nomzodlarni tayyorlanishi kafedralar tomonidan muntazam ravishda taqdim etilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, fakulteti dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

1.2. Akademiya professor-o'qituvchilarni, shuningdek doktorantura va mustaqil izlanuvchilik instituti talabalarini xorijiy tillarni o'rganishni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqilishi maqsadida tashkil etilgan "Til o'rgatish markazi" ga jalb etilishi kuchaytirilsin hamda barcha fakultetlar kafedralarida, jumladan bakalavriat talabalarini xorijiy tillarni o'rganishga yo'naltirilishi, milliy va xorijiy sertifikatga ega bo'lishi, keyinchalik magistratura yo'nalishlariga kirishi bo'yicha targ'ibot ishlari olib borilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

1.3. Barcha fakultet kafedralari tomonidan davlat va xorijiy ilmiy grant-loyhalari tanlovlarida faol qatnashishlari hamda xo'jalik shartnomalar bo'yicha ishlar olib borilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

1.4. Barcha fakultet kafedralarida ilmiy-tadqiqot ishlarni yuqori sifatda olib borilishi maqsadida Akademiyaning "Biotibbiyot markazi" laboratoriyalari bilan hamkorlik ishlari kuchaytirilishi, loyihalar bajarilishi uchun kerakli asbob-uskuna va reaktivlar bo'yicha buyurtmalar berilishi ta'minlansin, shuningdek, yangi laboratoriyalar tashkil etilishi bo'yicha takliflar kiritilsin.

| | |
|---|---|
| O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor | Sh.A.Boymuradov |
| Yoshlar masalalari va ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor | T.A. Bobomuratov |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor | F.L. Azizova |
| Davolash ishlari bo‘yicha prorektor | M.Sh. Karimov |
| Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori | S.I.Dustmurodov |
| O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i | F.X. Azizova |
| Bosh hisobchi | B.I. Alijonova |
| Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i | O.U. G‘oipov |
| Yuriskonsult | S.M. Yusupova |

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023 yil 13 mart.**

1.5. Akademiyada ta'lim olayotgan doktorant va mustaqil izlanuvchilarning xisobotlari yilning har chorakida fakultet kengashlarida tahlili o'tkazilishi, ularning natijasiga ko'ra taaluqli xulosalar hamda zarur bo'lgan moddiy yordam ko'rsatilishi bo'yicha takliflar berilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

1.6. Akademiyaning iqtidorli talabalarini saralash maqsadida ularni fanlar kesimida mahalliy va xorijiy olimpiada va konferensiyalarda ishtirokini ta'minlash, nufuzli o'rinlarni egallashda hamda nomdor stipendiyalarga nomzodlarni tayyorlashda ishlar davom etilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

1.7. Turdosh ta'lim yo'nalishlari bo'yicha magistratura va doktorantura mutaxassisliklariga nomzodlar tayyorlanishi bo'yicha ishlar olib borilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

1.8. Bitiruvchi magistratura talabalari orasidan o'zini mutaxassisligi yoki tibbiy-biologik yo'nalishi bo'yicha doktoranturaga yoki kafedrada o'qituvchi-pedagog sifatida olib qolinishi maqsadida nomzodlar bilan alohida tayyorgarlik ishlari olib borilishi ta'minlansin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

1.9. Akademiyaning barcha fakultet kafedralarining ilmiy salohiyatni oshirish maqsadida har bir xodimning ilmiy mahsulotlar yaratish vazifalarini bajarilishini monitoringi va nazorat qilinishi ta'minlansin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.Turakulov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

| | |
|---|---|
| **O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor** | **Sh.A.Boymuradov** |
| **Yoshlar masalalari va ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor** | **T.A. Bobomuratov** |
| **Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor** | **F.L. Azizova** |
| **Davolash ishlari bo‘yicha prorektor** | **M.Sh. Karimov** |
| **Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori** | **S.I.Dustmurodov** |
| **O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i** | **F.X. Azizova** |
| **Bosh hisobchi** | **B.I. Alijonova** |
| **Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i** | **O.U. G‘oipov** |
| **Yuriskonsult** | **S.M. Yusupova** |

**Muddat: 2022/2023 o‘quv yili davomida.**

1.10. Barcha fakultet kafedralari professor-o`qituvchilari va yosh olimlarning ilmiy salohiyatini oshirilishi, zamonaviy talablarga muvofiq ilmiy izlanishlar olib borilishi, xorijiy Oliy ta'lim muassasalari va markazlari professor-o`qituvchilari bilan tajriba almashinuvini amalga oshirilishi maqsadida kafedralar tomonidan har bir semestr davomida xalqaro ilmiy konferensiyalar tashkillashtirilishi ta`minlansin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o‘quv yili davomida.**

1.11. Doktorantura va mustaqil izlanuvchilarning mavzularini tanlash va Akademiya Ilmiy kengashiga tasdiqlash uchun olib chiqishda ilmiy rahbar, Muammoli ha'atlar raislari va a'zolarining javobgarligi ta`kidlab o`tilsin va nazoratga olinsin.

**Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova, Muammoli ha'at raislari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o‘quv yili davomida.**

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi bo`yicha "Xalqaro hamkorlik doirasida bajarilayotgan ishlar, xalqaro aloqalar bo`limi faoliyati tahlili" mavzusi bo`yicha Xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor Jahongir Djamshidovich Israilovaning ma`lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma`ruza matnda keltirilgan).

2.1. Akademiya professor-o`qituvchilari tomonidan Xorijiy universitetlarda ma'ruzalar, seminarlar, mahorat darslari va boshqa o`quv-uslubiy hamda ilmiy tadbirlarni («Guest lectures») o‘tkazilishi, shuningdek, nufuzli xorijiy OTM va Ilmiy markazlarda malaka oshirishlari va maqsadli stajirovka o`tashlari kuchaytirilsin.

**Mas'ul: Xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor J.Dj.Israilov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o‘quv yili davomida.**

2.2. Barcha fakultet kafedralari tomonidan Xalqaro tadbirlarni (konferensiyalar, kongresslar, simpoziumlar) o`tkazilishi va ushbu tadbirlarda kafedraning barcha xodimlarining faol ishtiroki ta`minlansin.

**Mas'ul: Xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor J.Dj.Israilov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o‘quv yili davomida.**

2.3. Barcha fakultet kafedralarining o`quv-ilmiy jarayoniga xorijiy mutaxassislarning jalb etilishi, ular tomonidan zamonaviy ma`ruza, amaliy dars va boshqa tadbirlar (har bir kafedra tomonidan kalendar yili kesimida kamida 4-5 ta) o‘tkazilishi muntazam ravishda olib borilishi ta`minlansin.

**Mas'ul: Xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor J.Dj.Israilov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o‘quv yili davomida.**

| | |
|---|---|
| O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor | Sh.A.Boymuradov |
| Yoshlar masalalari va ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor | T.A. Bobomuratov |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor | F.L. Azizova |
| Davolash ishlari bo‘yicha prorektor | M.Sh. Karimov |
| Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori | S.I.Dustmurodov |
| O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i | F.X. Azizova |
| Bosh hisobchi | B.I. Alijonova |
| Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i | O.U. G‘oipov |
| Yuriskonsult | S.M. Yusupova |

2.4. Barcha fakultet kafedralari tomonidan xalqaro loyiha va dasturlarni amalga oshirish bo'yicha takliflar kiritilsin.

**Mas'ul: Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor J.Dj.Israilov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023 yil mart.**

2.5. Barcha fakultet kafedralari tomonidan xorijiy hamkorlar bilan ilmiy va o'quv mahsulotlarni (qo'shma ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda o'quv-uslubiy mahsulotlar) yaratilishi va chop etilishi (har bir kafedra tomonidan kalendar yili kesimida kamida 3 ta maqola, 3 ta monografiya) bo'yicha takliflar kiritilsin.

**Mas'ul: Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor J.Dj.Israilov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023 yil mart.**

2.6. Akademiyaning akademik reytingi (reputatsiya) bo'yicha global so'rovda ishtirok etish uchun barcha kafedralar tomonidan xorijiy universitetlar, xorijiy va milliy tibbiy markaz va klinikalar, sog'liqni saqlash muassasa yoki tibbiyot kompaniyalardan mutaxassislarning ishtiroklarini ta'minlab berishlari ta'kidlab o'tilsin (har bir kafedradan kamida 10 nafar mutaxassislarning roziligi olinsin).

**Mas'ul: Barcha kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2023 yil 12 mart.**

2.7. Akademiyaning professor-o'qituvchilari tomonidan xorijiy universitetlarda "Faxriy Professor" unvonini egallash, Xalqaro mukofotlarni qo'lga kiritish. Xalqaro ilmiy jamiyat va uyushmalarga a'zo bo'lish hamda O'quv dasturlarni xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha olib boriladigan ishlar kuchaytirilishi ta'kidlab o'tilsin.

**Mas'ul: Barcha kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

2.8. Akademiya professor-o'qituvchilari uchun xalqaro hamkorlik sohasida olib borayotgan faoliyati bo'yicha yangi imkoniyatlar, shu jumladan, chet elda malaka oshirish va amaliyot o'tash uchun to'lovlar, dunyoning TOP-1000ga kiruvchi universitetlarida ma'ruza qilganligi uchun to'lovlar, xalqaro mobillik dasturlarida ishtirok etganligi uchun, chet tillarini bilish sertifikatini olish bo'yicha harajatlarini qoplab berilishi, xalqaro tadbirlar, konferensiyalar, simpoziumlar va olimpiadalar o'tkazilishini - *Akademiya tomonidan* moddiy qo'llab-quvvatlanishi ta'kidlab o'tilsin.

**Mas'ul: Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor J.Dj.Israilov, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U. G'oipov.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

3. Kun tartibining keyingi masalasi "Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash" bo'yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova "Pedagogika, psixologiya va tillar» kafedrasi mudiri lavozimiga - Melibayeva Roza Nasirovna, "Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya" kafedrasi mudiri lavozimiga – Usmanxodjaeva Adibaxon Amirsaidovna va Nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasi

| | |
|---|---|
| O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor | Sh.A.Boymuradov |
| Yoshlar masalalari va ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor | T.A. Bobomuratov |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor | F.L. Azizova |
| Davolash ishlari bo‘yicha prorektor | M.Sh. Karimov |
| Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori | S.I.Dustmurodov |
| O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i | F.X. Azizova |
| Bosh hisobchi | B.I. Alijonova |
| Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i | O.U. G‘oipov |
| Yuriskonsult | S.M. Yusupova |

professori lavozimiga – Ibodullayev Zarifboy Radjapovich nomzodlari tomonidan ariza tushganligi haqida ma'lumot berdi va hujjatlari bilan kengash a'zolarini tanishtirdi. So'ng saylov o'tkazildi (saylov hay'ati a'zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

4. Kun tartibining keyingi masalasi "Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash" bo'yicha O'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i F.X. Azizova va Kengash kotibi G.A.Ismailova taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi (2-va 3-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

5. Turli masalalar bo'yicha Xalqaro aloqalar bo'yicha Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.Goipov, Raqamlashtirish ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i A.K.Musaxonov so'zga chiqdilar.

5.1. 2022/23 o'quv yili uchun tabaqalashtirilgan kontrakt to'lovlarining 100% to'lashning muddati 2023 yil 1 aprel etib belgilansin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori S.I.Dustmurodov, Magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, fakultet dekanlari, Bosh hisobchi B.I.Alijonova.**

**Muddat: 2023 yil mart.**

5.2. Akademiyada elektron hujjat almashinuvi yuritilishi munosabati bilan (hujjat tayyorlash, imzolash, almashish va nazorat qilish jarayonlari raqamlashtirildi) barcha bo'limlarning faoliyati raqamlashtirilgan https://edoc.ssv.uz va https://jihozmed.ssv.uz hujjat almashinuvi (EDO) platformasida to'liq olib borilishi ta'minlansin. Shuningdek, professor-o'qituvchilar, magistratura talabalari va klinik ordinatorlar mehnat intizomini muvofiqlashtirish maqsadida elektron bot ishga tushirilishi ta'kidlab o'tilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A. Bobomuratov, Davolash ishlari bo'yicha prorektor M.Sh.Karimov, Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor J.Dj.Israilov, barcha bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

5.3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2023 yil 25 yanvar 16-sonli "Ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy, amaliy va fundamental ishlanmalar va ularning natijasini amaliyotga joriy qilish haqida" gi buyrug'iga binoan Akademiyada muvofiqlashtiruvchi Ekspert kengashi (rais t.f.d., professor X.S.Axmedov, 2-son oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar kafedrasi mudiri) tuzilganligi ta'kidlab o'tilsin va uning tarkibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.4. Toshkent tibbiyot akademiyasida ta'sis etilgan "Zulfiya nomidagi maxsus stipendiya"ga 2023-yil fevral oyida o'tkazilgan tanlov g'oliblari bo'lgan quyidagi talabalarga:

-1-son davolash fakulteti 5-bosqich talabasi Tursunova Zebiniso Avazbek qizi;

-2-son davolash fakulteti 4-bosqich talabasi - Bolunts Yevgeniya Andronikovna;

- Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti

5-bosqich talabasi - O'ktamova Dinara Zafar qizi;

| | |
|---|---|
| O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor | Sh.A.Boymuradov |
| Yoshlar masalalari va ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor | T.A. Bobomuratov |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor | F.L. Azizova |
| Davolash ishlari bo‘yicha prorektor | M.Sh. Karimov |
| Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori | S.I.Dustmurodov |
| O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i | F.X. Azizova |
| Bosh hisobchi | B.I. Alijonova |
| Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i | O.U. G‘oipov |
| Yuriskonsult | S.M. Yusupova |

- Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti 3-bosqich talabasi - Turobova Shoxista Shavkat qizi;

- Xorijiy fakultet 2-bosqich talabasi - Ojasvi Sharma;

-Menejment, tibbiy biologiya, Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti 1-bosqich talabasi– Abduraimova Adiba Axmadjon qizi – 2023-2024-o'quv yili uchun **"Zulfiya nomidagi maxsus stipendiya"**si tayinlansin.

**Mas'ul: Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor S.I.Dustmurodov, Bosh hisobchi B.I.Alijonova.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

**5.5.** Talabalar turar joylarida yashovchi chin yetim, Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari TTJ to'lovidan 100% ozod qilinsin, otasi yoki onasi vafot etgan hamda 1 - va 2 - guruh nogironligi bo'lgan talabalarga ijtimoiy holatlarini asoslovchi hujjatlari taqdim etilganda TTJ to'lovidan 50% chegirma qilinsin.

**Mas'ul: Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor S.I.Dustmurodov, Bosh hisobchi B.I.Alijonova.**

**Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.**

**Qaror bir ovozdan qabul qilindi va tasdiqlandi. Ilmiy Kengash o'z ishini yakunladi.**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi**
**Ilmiy kengashi kotibi** **G.A.Ismailova**

| | |
|---|---|
| O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor | Sh.A.Boymuradov |
| Yoshlar masalalari va ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor | T.A. Bobomuratov |
| Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor | F.L. Azizova |
| Davolash ishlari bo‘yicha prorektor | M.Sh. Karimov |
| Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori | S.I.Dustmurodov |
| O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i | F.X. Azizova |
| Bosh hisobchi | B.I. Alijonova |
| Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i | O.U. G‘oipov |
| Yuriskonsult | S.M. Yusupova |